

**TIL SEMANTIKASI VA KONSEPTUALIZATSIYANING  
KOGNITIV YONDASHUVI**

*Muratova Manzura Islamovna*

*Karshi davlat universiteti*

*Telephone: +998 95 480 27 27*

*Email: muratovamanzura27@gmail.com*

**Annotatsiya**

Ushbu maqola tilning kognitiv faoliyati, ya'ni borliqni idrok etish va anglash jarayonlaridagi rolini tahlil qiladi. Til va voqelik o'rtasidagi bilvosita bog'liqlik, ma'noning konseptualizatsiyasi va kuzatuvchi komponentining semantikadagi o'rni o'rganilgan. Shuningdek, taksonomiya, metafora va metonimiya kabi lingvistik hodisalarning konseptual asoslari ham tahlil qilinadi. Fe'l turlarining xilma-xilligi vaziyatning turli konseptualizatsiyasi bilan bog'liq ekanligi aniqlanadi. Kognitiv yondashuv til semantikasida yangi tadqiqot istiqbollarini ochadi.

**Kalit so'zlar:** Til, kognitiv lingvistika, semantika, konseptualizatsiya, referensiya, metafora, metonimiya, kuzatuvchi komponenti, taksonomiya

**Abstract**

This article analyzes the role of language in cognitive activity, namely in the processes of perceiving and understanding reality. The indirect relationship between language and reality, the conceptualization of meaning, and the role of the observer in semantics are explored. The conceptual foundations of linguistic phenomena such as taxonomy, metaphor, and metonymy are also examined. The diversity of verb types is shown to be related to different conceptualizations of situations. The cognitive approach opens new research perspectives in language semantics.

**Keywords:** Language, cognitive linguistics, semantics, conceptualization, reference, metaphor, metonymy, observer component, taxonomy

**Аннотация**

В статье анализируется роль языка в когнитивной деятельности, а именно в процессах восприятия и понимания реальности. Рассматриваются косвенные связи языка и реальности, концептуализация значения, роль наблюдателя в семантике. Также исследуются концептуальные основы лингвистических явлений, таких как таксономия, метафора и метонимия. Показано, что разнообразие типов глаголов связано с различными концептуализациями ситуации. Когнитивный подход открывает новые перспективы исследований в семантике языка.

**Ключевые слова:** Язык, когнитивная лингвистика, семантика, концептуализация, референция, метафора, метонимия, компонент наблюдателя, таксономия

Til insonning kognitiv faoliyati, ya'ni borliqni idrok etish va anglash jarayonlari kontekstida namoyon bo'ladi. Bunda voqelik va matn o'rtasida idrok qiluvchi hamda fikrlovchi subyekt turadi. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar lingvistikada til birliklarining shakli va ma'nosi o'rtasidagi munosabat bilan cheklanib kelingan edi. Bunda rivojlangan referensiya nazariyasi til va voqelik munosabatini o'rganishdagi dastlabki qadam bo'ldi.<sup>1</sup> Ammo bu nazariya asosan matndagi matn ichidagi birliklarning bir-biriga bog'lanishi, ya'ni bir so'z yoki ibora boshqa bir matn elementi orqali tushunilishi va keyingi so'z oldingi elementga ishora qiluvchiga (Masalan: *Ali keldi. U juda xursand edi.*) tayangan edi. Referensiya nazariyasi olmoshlar semantikasining rivojiga katta turtki berdi, biroq bundan ortig'iga yetib bormadi. So'zlarning asosiy qismi va grammatik kategoriyalar semantikasi esa hanuz "sof til ma'nosi" sifatida qaralib kelindi.

Zamonaviy nazariy semantika uchun prinsipial yangi g'oya shundan iboratki, ma'no — voqelikning konseptualizatsiyasi natijasidir va eng muhimi, bu konseptualizatsiya turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni ma'no maxsus kognitiv operatsiya — konseptuallashuv (anglash) natijasi ekanligini ta'kidlaydi. Bir xil voqelik parchasi turlicha konseptlar orqali ifodalanishi mumkin. Avvallari sintaktik darajada, ya'ni moslashuv cheklovlari orqali tushuntirilgan hodisalar endi bir vaziyatning turli konseptualizatsiyasi sifatida ko'rilmoqda. Shaklan turlicha bo'lgan konstruktsiyalar bir xil vaziyatni ifodalasa ham, turli ma'nolarga ega bo'lishi aniqlanmoqda. Moslashuv cheklovlari ham semantik izoh topmoqda.

Kognitiv yondashuv tilni o'rganishda yangi istiqbollarni ochdi. Shulardan biri — "idrok" komponentining til konseptlaridagi ulkan roli, xususan, kuzatuvchi figurasi semantikada mavjudligidir. Bu uch bo'limdan iborat bo'lib:

1. Denotatsiya va konseptuallashuv.
2. Kuzatuvchining roli.
3. Moslashuv cheklovlariga semantik yondashuvdan iborat.<sup>2</sup>

Yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bunda taksonomiya (ontologiya) g'oyasi juda muhimdir. Bu ham voqelikni lingvistika kompetensiyasiga kiritish natijasidir, chunki gap so'zlarga birlashtiriladigan obyektlar sinflari va ularning ierarxiyasi haqida bormoqda. Taksonomiya metafora tushunchasiga yangi hayot bag'ishladi. Roman

<sup>1</sup> Падучева Е.В. Когнитивные идеи в теоретической семантике. [https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit\\_2007\\_fin.pdf](https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit_2007_fin.pdf)

<sup>2</sup> Падучева Е.В. Когнитивные идеи в теоретической семантике. [https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit\\_2007\\_fin.pdf](https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit_2007_fin.pdf)

Yakobson ta'rifiga ko'ra, metafora — so'zning dastlabki kategoriyaviy (taksonomik) mansubligining buzilishidir.<sup>3</sup> Shuningdek, metonimiya uchun ham taksonomiya muhimdir, chunki metonimik aloqa ma'nolar orasida emas, balki voqelikdagi obyektlar orasida yuz beradi.

Xozirgi kunga kelib tilshunoslikda — denotat ham muhim o'rin egallamoqda. Ma'no nafaqat til ifodasining mazmuni, balki til tashqarisidagi obyektga nisbatan konsept sifatida ham ko'rilmog'da. Anna Vejbitskaya “semantik struktura” bilan bir qatorda “konseptual struktura” terminini ham qo'llaydi.<sup>4</sup> Konseptual struktura — voqelikning ma'lum bir bo'lagining til orqali konseptuallashtirish natijasi sifatida tushuniladi. Misol tariqasida:

a) *Siz shubhasiz qiziqarli bayonot qildingiz.*

b) *Sizning bayonotingiz shubhasiz qiziqarli.*

Bir xil obyekt bir vaziyatda aniq yoki noaniq tarzda tilga olinishi mumkin. Bunda konseptual tanlov so'zlovchiga bog'liq.

Konseptuallikning yana bir muhim jixati — sanaladi. Ilgari mukammal va nomukammal turlar bir xil vaziyatni ifodalashi sababli ularning tanlovi ixtiyoriy deb qaralgan. Ammo keyinchalik ma'lum bo'ldiki, ular turli ma'nolarni ifodalaydi va tanlov gapiruvchining qaysi konseptni taqdim etmoqchi ekaniga bog'liq.<sup>5</sup>

Shunday qilib aytish mumkinki, fe'l turlarining xilma - xilligi aslida vaziyatning turli konseptuallashtirishidir.

Til va voqelik o'rtasidagi bilvosita bog'liqlikni anglash til semantikasida idrok roliga yangicha qarashga olib keldi. Tilshunoslikda “idrok qilinadigan mavjudlik”, “idrok qilinadigan harakat”, hatto “idrok qilinadigan idrok” tushunchalari mavjud. Roman Yakobson bunday holatni “gapiruvchi-kuzatuvchining metonimik ishtiroki” deb ataydi.<sup>6</sup> Ayniqsa “kuzatiladigan yo'qlik” konsepti muhimdir. Masalan: *I am not at home.* (Men uyda yo'qman) iborasida kuzatuvchi mavjud. Gapiruvchi o'zini tashqaridan kuzatayotgandek bo'ladi. Bunday konstruktsiyalar semantik jihatdan kuzatuvchining vaziyatdagi ishtiroki bilan tushuntiriladi.

Aytish mumkinki, tilning kognitiv faoliyatdagi roli, ya'ni borliqni idrok etish va anglash jarayonlari kontekstida ifodalanishi endilikda nafaqat so'z shakli yoki grammatik kategoriya orqali, balki voqelikni konseptual jarayoni natijasida hosil bo'ladi. Shu bilan birga, bir xil voqelik turli konsepsiya orqali turlicha ifodalanishi mumkin, bu esa til va voqelik o'rtasidagi bilvosita bog'liqlikni namoyon etadi. Kognitiv yondashuv tilshunoslikda yangi yo'nalishni ochib, denotatsiya, kuzatuvchi komponenti va moslashuv cheklavlari kabi elementlarning semantik strukturadagi

<sup>3</sup> Якобсон Р. – Язык и бессознательное. Гнозис, -1996. С. 46

<sup>4</sup> Вежбицкая А. - Семантические универсалии и базисные концепты. Язык. Семиотика. Культура, - 2011. С. 156

<sup>5</sup> Падучева Е.В. Когнитивные идеи в теоретической семантике.

[https://Lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit\\_2007\\_fin.pdf](https://Lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit_2007_fin.pdf)

<sup>6</sup> Якобсон Р. – Язык и бессознательное. Гнозис, -1996. С. 46

ahamiyatini ko'rsatadi. Taksonomiya va ontologik yondashuvlar metafora va metonimiyaning semantik izohini chuqurlashtiradi, fe'l turlarining xilma-xilligi esa vaziyatning turli konseptualizatsiyasi bilan bog'liq ekanligi aniqlanadi. Shu nuqtai nazardan, til semantikasida "idrok qilinadigan mavjudlik", "idrok qilinadigan harakat" va "idrok qilinadigan idrok" kabi tushunchalar til va kognitiv faoliyatning uzviy bog'liqligini yoritadi. Natijada, til ma'nosini kognitiv konseptualizatsiya qilish orqali tahlil qilishning ilmiy ahamiyati, til va voqelik o'rtasidagi murakkab bilvosita munosabatlarni konseptual-analitik asosda yoritadi hamda semantika va kognitiv lingvistika sohasida yangi tadqiqot istiqbollarini ochadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Падучева Е.В. Когнитивные идеи в теоретической семантике. [https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit\\_2007\\_fin.pdf](https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit_2007_fin.pdf)
2. Падучева Е.В. Когнитивные идеи в теоретической семантике. [https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit\\_2007\\_fin.pdf](https://lexicograph.ruslang.ru/TextPdf2/cognit_2007_fin.pdf)
3. Якобсон Р. – Язык и бессознательное. Гнозис, -1996. С. 46
4. Вежбицкая А. - Семантические универсалии и базисные концепты. Язык. Семиотика. Культура, - 2011. С. 156